

FINLANDIYA VA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI

Rustamova Charos Rustamovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ta'lim tizimi har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek har bir davlatning ta'lim tizimi o'zining madaniyati, tarixiy sharoitlari va iqtisodiy resurslariga asoslangan. Bugungi kunda ko'plab davlatlarda ta'lim tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek Yaponiya, Amerika, Finlandiya, Niderlandiya, Germaniya va Singapur singari mamlakatlarda rivojlanish katta bo'lgani sabab, biz ham ushbu davlatlardan o'rganishimiz kerak bo'lgan omillar bor, albatta. Deylik, hozirgi kunda yana ko'plab davlatlarda ham Finlandiya ta'lim tizimi tajribalaridan foydalanib kelinmoqda. Ushbu sabablarga ko'ra mazkur maqola Finlandiya va O'zbekistondagi ta'lim tizimi darajasi, o'qitish usullari va ta'lim sohasidagi yutuqlari tizimli tarzda beshta mezon: metod, ta'lim dasturi, amaliyot, talaba tanlovi, o'quv dasturi asosida tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: talim tizimi, metodologiya, talim dasturi, amaliyot, talaba tanlovi, STEAM, O'zbekiston, Finlandiya.

COMPARATIVE ANALYSIS OF EDUCATION SYSTEM OF FINLAND AND UZBEKISTAN

Annotation. The education system plays an important role in the socio-economic development of every country. Also, the education system of each country is based on its culture, historical conditions and economic resources. Today, in many countries, great attention is paid to the development of the education system. Also, countries such as Japan, America, Finland, the Netherlands, Germany and Singapore have great development, so there are factors that we should learn from these countries, of course. For example, many other countries are using the experiences of the Finnish education system. For these reasons, this article systematically analyzes the level of the education system, teaching methods and educational achievements in Finland and Uzbekistan based on five criteria: method, educational program, practice, student choice, curriculum aimed at analysis.

Key words: educational system, methodology, educational program, practice, student selection, STEAM, Uzbekistan, Finland.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СИСТЕМ ОБРАЗОВАНИЯ ФИНЛЯНДИИ И УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. Система образования играет важную роль в социально-экономическом развитии каждой страны. Также система образования каждой

страны основана на ее культуре, исторических условиях и экономических ресурсах. Сегодня во многих странах большое внимание уделяется развитию системы образования. Кроме того, такие страны, как Япония, Америка, Финляндия, Нидерланды, Германия и Сингапур, имеют большое развитие, поэтому, конечно, есть факторы, которым нам следует поучиться у этих стран. Например, многие другие страны используют опыт финской системы образования. По этим причинам в данной статье систематически анализируется уровень системы образования, методы преподавания и образовательные достижения в Финляндии и Узбекистане на основе пяти критериев: метод, образовательная программа, практика, выбор учащихся, учебная программа, направленная на анализ.

Ключевые слова: система образования, методика, образовательная программа, практика, отбор студентов, STEAM, Узбекистан, Финляндия.

Hozirgi kunda Finlandiya ta'lim tizimi dunyoda muvaffaqiyatli va yuqori o'rirlarda turibdi. Buning sababi, ta'limda individual yondashuvi, o'quvchilarga berilgan imkoniyat, sharoit va ishonch, o'qituvchilarning malakasi kabi yana bir necha omillarga bog'liq.

Finlandiya Respublikasi – Shimoliy Yevropada joylashgan davlat. 1981-yildan o'zini o'zi boshqarish maqomini olgan. Poytaxt; Helsinki – Finlandyaning eng rivojlangan shaharlaridan biri hisoblanadi. Yuqoridagi gaplardan kelib chiqib biz o'ylashimz mumkin-ki, Finlandiya o'quvchilari juda ko'p vaqtlarini o'qishga, kitobga sarflaydi deb. Ammo, aksincha, Finlandiyada o'quvchilarga, hatto, uyga vazifa berilmaydi. Sababi, ularda to'g'ri ta'lim tizimi shakllangan. O'quvchilardan nazorat imtixonlari ham olinmaydi. Ulardan mакtabda 1-marta davlat imtixonni 16 yoshida olinadi. Finlandyaning shu kabi o'ziga xos ta'lim usullari borligi sababli yuksalish yuqori. Endi shu tizimni boshqa mamlakatlar, masalan O'zbekiston ham sinov tariqasida qo'llab ko'rsa, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar soni yanada ko'paygan bo'lardi. Shu sababdan, Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich topshiriqlariga binoan 2023-yildan boshlab Finlandiya standartlarini 1-4 sinflarda qo'llash joriy etilmoqda. Hozirda 12 ta viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikalarida 1 tadan, jami 14ta maktablarda bu tizim joriy etishda dastlabki harakatlar boshlandi. "Nima uchun aynan Finlandiya ta'lim tizimi?" -degan savolga javoban aytish mumkin-ki, ta'lim sifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlarda Finlyandiya ta'lim tizimi har tomonlama eng yetuk deb tan olingan. Yuqorida aytib o'tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, ushbu maqolaning maqsadi Finlandiya va O'zbekiston ta'lim tizmini 5 mezon asosida tahlil qilishdir. Finlandiya ta'lim tizimida asosiy e'tibor o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, kreativligini va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan. O'qituvchilar o'quvchilarni nafaqat ilmiy taraflama, balki, jismonan va ma'nан ham rivojlantirishga, shaxsiy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilar pedagogik erkinlikka ega, shuning uchun ham o'zları mustaqil fikrlab qaror qabul qila olishadi. Finlandiyalik o'qituvchilar ham, otanonalar ham fanlardagi mavhum va qiyin tushunchalarni o'rgatishning eng yaxshi usuli

musiqa yoki sport bilan shug‘ullanish deb biladilar. Shu sabab, direktor Anne-Mari Yaatinen maktab falsafasini quyidagicha ta’riflaydi: "Biz o‘quvchilar xavfsiz, baxtli, qulay va ilhom baxsh etgan muhitda bilim olishlarini istaymiz". O‘qituvchilar ham yangi mavzuni bolalarga tushuntirib gapirib berishmaydi, barcha ma'lumotlar kitobda berilgan. O‘quvchilar formulalarni yod olishmaydi, internetdan, kalkulyator va shu kabi zamonaviy texnikalardan foydalanish, ma'lumotlarni qidirish va muammolarni yechish uchun kerakli resurslardan foydalanishni bilishlari muhim. Shuningdek, pedagoglar o‘quvchilar orasidagi nizolarga aralashishmaydi, ular hayotiy vaziyatlarga o‘zлari tayyorlanishi, mustaqil hal qila olishlariga imkon beriladi. Finlandiya maktablari bir xil bo‘lsa ham, o‘quv jarayonlari turlichay tashkillashtiriladi.

O‘zbekistonda ta’lim beruvchilar o‘quv dasturi asosida ta’lim oluvchilar, ya’ni, o‘quvchilarga yuklammalar berishadi. Dars vaqt vaqzu tushuntirilgandan so‘ng, o‘zlashtirish maqsadida turli metodlardan foydalaniladi. Hozirgi vaqtida zamonaviy metodlardan foydalanishning asosiy maqsadi-o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka eshish va o‘zlashtirish darajasining osishiga olib keladi. Metodlar esa har bir darslikning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlanadi. Bizning mamlakatda ananaviy pedagogika usullari keng tarqalgan. Bunda ko‘pincha nazariy bilimlarni taqdim etish, takrorlash va yodlashga e’tibor qaratiladi. Ammo, yaqin yillarda O‘zbekistonda ham o‘quv dasturida yangi, zamonaviy metodlarni qo‘llash maqsadida guruh bilan ishslash, zamonaviy texnologiyalar bilan ishslash va interfaol usullar ham isloq qilinmoqda. Ushbu usullar ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrashga undovchi bo‘lib hizmat qiladi.

Finlandiya maktablarida o‘quvchining bilim olishi emas, balki, uning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, boshlang‘ich va o‘rtta’lim bepul va majburiy hisoblanadi. Finlyandiyada o‘quv yili avgustda boshlanadi, yagona kun yo‘q. O‘quv yili may oyi oxirida yakunlanadi. Kuzgi yarim yillikda 3-4 kunlik ta’til bor, shuningdek Rojdestvo munosabati bilan 2 haftalik ta’til beriladi. Bahorgi yarim yillik fevral oyidagi "chang‘i" ta’tilini ham o‘z ichiga oladi, bunda fin oilalari, qoidaga ko‘ra, oilaviy chang‘i uchishga borishadi. Bundan tashqari, bahorgi yarim yillikda Pasxa ta’tili ham bor.[1] Finlandiya maktablarida uyga vazifa berilmaydi. Ta’lim 5 kunlik, faqat kuzgi smenada. Juma qisqartirilgan kun. Finlandiya maktablarida har bir bola uchun individual ta’lim va rivojlanish rejasi tuziladi. Bir sinfning o‘zida bolalar turli xil murakkabliklardagi mashqlarni bajarishadi. Bu usulda o‘qitilganda o‘quvchi o‘zining bilim darajasidan yuqori mashqlarni bajarolmay, tengdoshlari orasida izza bo‘lmaydi hamda bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortib boradi.

O‘zbekistonda ta’lim dasturlari standartlashtirilganligi bois, ko‘plab ta’lim muassasalarida o‘quv dasturi va rejalar bir xil. Ta’lim dasturi ko‘plab asosiy fanlarni o‘z ichiga oladi. Lekin so‘ngii yillarda O‘zbekistondagi yangilanishlar sababli amaliyatga yo‘naltirilgan va zamonaviy talablarga javob bo‘luvchi kurslar qo‘sildi. Hozirda yangi ta’lim metodlari va dasturlarini joriy etish davom etmoqda. O‘zbekistonda STEAM: ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika ta’limi keng isloq etilmoqda. Bu ta’lim dasturi o‘quvchilarni zamonaviy texnologiyalar

va ilmiy yutuqlar bilan tanishishga yordam beradi. STEAM texnologiyasi an'anaviy ta'lidan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. O'quvchi o'zida nostandard fikrlash, muammoga bir necha yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo'l keladi. Bunda asosiy maqsad, o'quvchilarning darsda olgan bilimlarini amaliyitda qo'llash va hayotga tatbiq qilishga o'rgatishdir. STEAM yondashuvida o'quvchilar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rghanish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatajilar.

Finlandiyaliklar "Yo hayotga tayyorlaymiz, yoki-imtixonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz"-deydi. Shuning uchun Finlandiya maktablarida imtixonlar yo'q. Finlandiyalik o'quvchilar mактабning dastlabki 6 yilda baholanmaydilar. Oraliq hamda yakuniy imtixonlar esa o'qituvchining qaroriga qarab baholanadi. Finlandiya maktablari o'quvchilarni hayotga tayyorlaydi. Ularga kerak bo'limgan topshiriq, ma'lumotlarni o'r ganmaydi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga guruh bilan ishslash, loyiha yaratish, amaliy mashg'ulotlarga undaydi, hayotiy muammolarni hal qilishga o'rgatadi. Sinfda bolalar amaliy mashg'ulotlar qilib turishlari lozim, bu vaqtida ular shovqin qilishlari ha kerak, albatta. Chunki Finlandiya maktablarida sinf xonalarida o'quvchilar jim bo'lib o'tirishsa bunda o'qituvchi so'roq qilinadi. Dars jarayonida interaktiv usullardan foydalanish va o'qituvchi bilan do'stona munosabatda bo'lish muhim.

O'zbekistonda ta'lim tizimidagi jarayonlar asosan ta'lim beruvchining ma'ruza va darsliklariga bog'liq bo'ladi. Ammo so'nggi yillarda O'zbekistonda o'quvchining amaliyoti va innovatsion metodlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim oluvchilar nazariy olgan, o'zlashtirgan bilim, malakalarini amalda qo'llab, mustahkamlashlari anchagina muhim sanaladi. Buning uchun maktablarda laboratoriya xonalari, amaliy mashg'ulotlar va praktikumlar tashkil etilmoqda. Sinfda o'quvchining faolligini oshirishga harakat qilinmoqda, ammo bizda hali hanuz interfaol metodlar va guruh bilan ishslash to'laqonli rivojlanmagan. Maktabda ta'lim oluvchilar texnologiya, tabiat, kimyo, informatika kabi fanlarda bilimlarini amaliyotda tatbiq qilishlari mumkin. O'zbekistonda ta'lim tizimi kundan-kunga yangilanmoqda, shu sababli, amaliyot ham ta'limning muhim qismi sifatida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan.

Finlandiyada talaba tanlovi adolatli va shaffof tarzda bo'lib o'tadi. Kirish jarayoni o'qish sohasiga qarab farqlanadi, ammo imtixonlar, intervylar va avvalgi ta'lim asosida talaba tanlovi amalga oshiriladi. Finlandiyada kirish imtixonlari deyarli yo'q. Oliy ta'limga kirishning esa 2 xil usuli bor: kirish imtixonlari va avvalgi natijalar. Ammo har ikki usulda ham o'quvchilarni oliy ta'limga qabul qilish, asosan, ularning shaxsiy qobiliyati, akademik darajasi va maktabdagagi faolligiga bog'liq. Albatta, Finlandiya ta'lim tizimida ham o'ziga xos talablar mavjud. Ulardan: 12 yillik ta'limni bitirgan bo'lishligi, talaba o'zi tanlagan oliygoh, yo'nalish doirasidagi fanlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi, ingliz tilini bilishlari kerak bo'ladi.

O'zbekiston ta'lim tashkilotlarida imtixonlar katta rol o'ynaydi. Oliy o'quv yurtlariga kirishda, sinflar va kurslar oralig'ida imtixon olinadi. O'quvchilar uchun bu

turdagi imtixonlar ta'limdagi katta to'siqni tashkil qiladi. Talaba tanlovi talabalar uchun o'zlarining katta hayotiga ilk qadam sifatida kasbiy faoliyatini rejalashtirish, malakali mutahasis bo'lishga yo'l ochib beradi. Ushbu tanlov talabaning ilmiy va amaliy bilimlarini baholash va uni test orqali tanlash jarayoni. Yana O'zbekistonning yangilanayotgan tizimiga nazar soladigan bo'lsak, hozirgi kunda abituriyentlar o'zlarini tanlagan fanlar va majburiy fanlar asosida imtixon topshirishadi va ma'lum muddatdan so'ng to'plagan ballariga nisbatan oliy o'quv yurtlarini tanlashadi.

Finlandiya ta'lim tizimining asosiy xususiyatlaridan biri doimiy yangilanib borishi. O'quv dasturi va te'lim metodlari muntazam ravishda o'zgarib turadi, bunda maktab va o'quvchilar o'zlarini uchun samarili bo'lgan usulni izlashadi. 1-2-sinflar ta'limning boshlang'ich va kirish qismi bo'lgan fanlarni, ya'ni, ona tili, o'qish, matematika, din yoki hayotiy tushunchalar, musiqa, rasm, mehnat va jismoniy tarbiya kabi yengil fanlarni o'rghanishadi. Bir darsda bir necha fanlar ham o'tilishi mumkin. 3-6- sinfdan chet tilidan ingliz tili o'rgatila boshlanadi. 4-sinfda esa o'quvchilarning tanlovi asosida yana bir chet tili qo'shimcha tarzda o'rgatila boradi. Masalan: fransuz, shved, rus yoki nemis tillari.

Qo'shimcha fanlar ham tanlov asosida kiritiladi: informatika, biologiya yoki san'at, musiqa. Deyarli barcha maktablarda musiqa asboblaridan foydalanish o'rgatiladi va o'quvchilar 9 yil davomida barcha musiqiy asboblarni chalishni o'rghanib olishadi. 1-sinfdan 6-sinfgacha deyarli barcha fandan bitta o'qituvchi ta'lim beradi. Fan o'qituvchilari 7-sinfdan almasha boshlaydi. 7-9-sinflarda biroz murakkab fanlar qo'shiladi: geografiya, fizika, kimyo, fin tili va adabiyoti, salomatlik asoslati, din va boshqa boshlang'ich fanlar. 9-sinfda ikki hafta davomida o'quvchilar haqiqiy "mehnat hayotini" ko'rishadi. Buning uchun o'zlarini tanlagan ish o'rniда ishlab ko'rishadi.

O'zbekistonda ham ta'lim tizimi rivojlanayotganiga qaramay ba'zi hududlarda ananaviy usullardan foydalanish hali hamon davom etib kelmoqda. 1-4- sınıf o'quvchilari asosiy bilimlar bilan tanishadi, matn o'qishni, yozishni o'rghanishadi. 5-9 -sinif o'quvchilari aniq va gumanitar fanlar bilan chuqurroq tanishishadi. Masalan: kimyo, biologiya, matematika, fizika. 10-11- sınıf o'quvchilari ixtisoslashgan fanlarni o'rghanishadi. Masalan: tabiiy fanlar, jamiyatshunoslik va san'at kabi. Umumiyo o'rta ta'limning so'nggi yilda o'quvchilar oliy o'quv yurtlariga kirish imtixonini topshirib O'zbekiston oliy ta'lim muassasalariga kirish imkoniga ega bo'lishadi.

Quyida "O'zbekiston va Finlandiya ta'limidagi 13 ta farq" keltiriladi:

1. O'quv dasturi va darsliklar mamlakatimizda ta'limning asosiy qismi sifatida qaraladi. Ta'limning sifatsizligi, ko'incha, bu ikkalasining aybi deb hisoblanadi. Finlandiyada juda oddiy o'quv dasturi mavjud va ko'p ham o'zgarmaydi. O'qituvchilar o'zlarini o'qitiladigan kitoblarni tanlaydilar, ammo darsliklar uncha ko'p emas. Shunday qilib, Finlandiya ta'lim tizimida darsliklar asosiy qism bo'lishi u yoqda tursin, kerakli narsa ham emas.

2. O'zbekistondagi birinchi sınıf o'quvcholarining ota-onalari "Bugun bolamiz matematikadan 5 oldi!" deb g'ururlanishlari mumkin. Rasmiy baholar bo'masa ham, o'qituvchilar o'z tashabbusi bilan testlarni katta fidoyilik bilan tayyorlaydilar. Finlandiya o'quvchilarimaktabning dastlabki olti yilda hech qachon baholanmaydilar.

Bu yerdagi talabalar birinchi bo‘lib 16 yoshga to‘lganlatida mamlakat miqqosida imtihon topshiradilar.

3. O‘zbekisyonda maktabda o‘quvchi qayergadir chiqindi tashlasa yoki shunga o‘xhash holat bo‘lsa, ertasiga ota-onasiga shikoyat qilinib, chaqiriladi. Finlandiyada o‘quvchilar tizimdagи barcha maktan ishlarini navbat bikan bajaradilar. Finlandiya maktablarida xizmatchilar yo‘q, barcha ishlar o‘quvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Shunday qilib, ularning mas’uliyat hissi rivojlanadi.

4. Finlandiyadagi maktablar o‘quvchilarga qulay bo‘lishi uchun mo‘ljallangan. Sinfda bajarish va yasash orqali o‘rganish modeliga mos joylar mavjud. Binolarning qurilish xususiyatlari o‘quvchilarga xuddi uydagidek qulay bo‘lishiga imkon beradi deb o‘ylaashadi. O‘zbekistonda ko‘p yillar davomida buyruq ostida o‘quvchilar nazoratda ushlab turishga uriniladi. "Menga quloq soling" deb baqirib turadigan o‘qituvchi oldida qanchalik yaxshi quloq solishlarini bilib bo‘lmaydi.

5. O‘zbekistonda xususiy maktablarda o‘qish soati 9, davlat maktablatida esa 5-6 soat. Bu ham yetmaganidek, darsdan so‘ng to‘garaklar, qo‘srimcha darslar, repetitorlar qo‘silijb shaxsiy darslar 12-14 soatni qamrab oladi. Finlandiyada esa kunlik dars 4 soatni tashkil qiladi va Juhon Ta’lim tizimlari reytingini ko‘rib chiqsak, sifat va miqdor tushunchalari naqadar muhim ekanligi oydinlashadi.

6. O‘zbekistondagi barcha o‘quvchilar o‘zlarini kasbinieng yuqori cho‘qqisida ko‘rishadi. Imtihon natijalari yomon bo‘sa, odatda, o‘rganishdagi qiyinchiliklar esga olinadi. Yilda bir yoki ma'lum yillarda bir marta malaka oshirish amalga oshiriladi. Shu sababli, kasbiy malakani oshirish bo‘yicha doimiy ish olib borilmaydi. Finlandiyada esa o‘qituvchilar haftasiga kamida 2 soat malaka oshirish kurslariga qatnashishlari kerak.

7. O‘zbekistonda "Hech bo‘lmasa, maktabda o‘qituvchi bo‘ladi" degan mantiq hali ham bor. Ammo Finlandiyada o‘qituvchilik kasbi jamiyatning eng muhim kasblaridan biridir! O‘qituvchilar magistr darajasiga ega bo‘ganlar orasidan tanlanadi. Bakalavr bitiruvchilari orasida o‘qituvchilik uchun atiza bergenlarning atigi 10 foizi o‘qituvchilarni tayyorlash dasturiga qabul qilinadi.

8. O‘zbekistonda o‘qituvchi bo‘lish uchun institutni bitirsangiz kifoya. Finlandiyada o‘qituvchi bo‘lish uchun uch bosqichli sinovdan o‘tishingiz kerak. Ushbu bosqichlar orasida muloqot va dars tushuntirish kabi bo‘imlar mavjud.

9. Finlandiyada o‘qotuvchilarning daromad darajasi juda yaxshi. O‘z ishidan boshqa ish bilan shug‘ullanib qo‘srimcha daromad olishga intilayotgan o‘qituvchilar deyarli yo‘q. Chunki ularning maoshi, hatto, ehtiyojlatiga ham yetmaydi ba’zida. O‘qituvchilarning to‘lovlarini to‘lash uchun boshqa narsalar bilan kurashishi natijasida yuzaga kelgan vazoyat uchun hisobni butun xalq to‘laydi keyin...

10. O‘zbekistonda o‘qituvchilar qancha ko‘p uyga vazifa bersa, shuncha yaxshi bo‘ladi deb hisoblashadi. Finlandiyadagi o‘quvchilarga uy vazifasi berilmaydi. O‘qish joyi maktab sifatida qaraladi. Shu sababli Finlandiyada kechqurun farzandining mehnatdan topshirig‘i uchun kartonga gul chizib o‘tiradigan ota-onalar yo‘q.

11. Finlandiyada hech bir o‘quvchi rassomchilik bo‘limida o‘qib, matematikadan dars qilib o‘tirmaydi. Mamlakatimizda o‘quvchilar matematikadan zerikishadi va

daftarlariiga rasm chizishadi. Keyin matematika o'qituvchisi bolani rasm darsida ushlaydi va uni matematikadan o'qishga olib boradi. Tizim shunday ekan, tizimning samarali shaxslarni ishlab chiqarishini kutish, albatta, qiyin.

12. Bizning sinflarda, agar a barcha o'quvchilar o'z joylarida o'tirsa va ovozlari chiqmasa, o'sha sinf o'qituvchisini maqtashadi. Finlandiyada agar sinfdan ovoz chiqmasa o'quvchilar o'z stollarida qatorlashib, hech joyidan turmasdan o'tirsa, o'sha sinf o'qituvchisi tekshiruvga olinadi. Chunki Finlandiya ta'lif tizimida dars tushuntiradigan o'qituvchi yo'q. Hamma narsani birgalikda bajaradigan mashg'ulotlar mavjud. Shuning uchun ham Finlandiya maktablaridagi sinflarda "aylanib yurma, o'tir joyingga" degan gap deyarli eshitilmaydi.

13. Fin maktabi oshxonalarida sut, suv va mevalardan boshqa narsa yo'q. Bizda esa boshqacha. Har tanaffusda shokolad bilan shirinliklar iste'mol qiladigan bolalarni ketma-ket 6 soat davomida o'tirishga urinish o'qituvchilar uchun katta sinov! Ehtimol, shuning uchun bizda tanaffus bo'lishi bilan tez chiqib ketish bo'yicha rekordlar bor...

Xulosa qilib aytganda, Finlandiyaning ilg'or ta'lif tajribalari O'zbekiston ta'lif tizimini rivojlantirishda foydali bo'lishi mumkin. Buning uchun, avvalo, xalqimizning dunyoqarashi oshishi va to'g'ri fikrlay olishi lozim. Biroq, O'zbekistonning o'ziga xos sharoitlari va madaniyati hisobga olinishi zarur. Ta'lif sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda Finlandiya tajribasini o'rganib, uni milliy sharoitlarga moslashtirish orqali O'zbekiston ta'lif tizimini yanada rivojlantirish mumkin.

IQTIBOSLAR. CHOESKI. REFERENCES.

Grigoriy Petrov. "Oq nilufarlar yurtida". Factor press. Toshkent-2021.

X. Ibraimov, M.Quronov. "Umumiy pedagogika." Sahhof-2023

<https://kun.uz/news/2018/08/13/ukuvci-va-ukituvci-orzusi-finlandia-talim-tizimi>
<https://uza.uz/uz/>

Komil Jalilov – journalist. "Finlandiya tajribasi O'zbekistonning ta'lif muommolarini hal qila oladimi?", "Gazeta.uz" 2022 yil 8-noyabr.